



ISSN 2181-9599

Doi Journal 10.26739/2181-9599

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ

ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST

VOLUME 8, ISSUE 7



ТОШКЕНТ-2025

**Бош муҳаррир:**  
**Главный редактор:**  
**Chief Editor:**

**Муртазаева Рахбар Хамидовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бош муҳаррир ўринбосари:**  
**Заместитель главного редактора:**  
**Deputy Chief Editor:**

**Джураева Нилуфар Далибаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари университети

## ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD

**Сагдуллаев Анатолий Сагдуллаевич**  
тарих фанлари доктори,  
профессор, академик,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бобожонова Дилором Бобожонова**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон жаҳон тиллари  
университети

**Юнусова Хуршида Эркиновна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Аширов Адхам Азимбаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Агзамова Гулчехра Азизовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ЎзР ФА Тарих институти

**Бурдиашвили Майя**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Кожакеева Ляззат Темировна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Хотин-қизлар давлат педагогика  
университети

**Аминова Азиза Марковна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Навоий давлат педагогика институти

**Ульжаева Шохистахон Мамажоновна**  
тарих фанлари доктори,  
Тошкент ирригация ва кишлок  
хужалигини механизациялаш  
муҳандислари институти  
Миллий тадқиқот университети

**Худайқулов Тулқин Дўстбоевич**  
Тарих фанлари доктори (DSc)  
Шаҳрисабз дала педагогика институти

**Гофоров Шокир Сафарович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Самарқанд давлат университети

**Эргашева Юлдуз Алимовна**  
Тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариши давлат техника университети

**Халикова Рахбар Эргашевна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент давлат техника университети

**Ишанходжаева Замира Райимовна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Эшов Боходир Жўраевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қариши давлат университети

**Махкамova Надира Раҳмановна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Тошкент ахборот технологиялари  
университети

**Кебадзе Мадонна**  
тарих фанлари доктори,  
Телави давлат университети

**Абдуллаева Яхшибека Агамуратовна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Нукус давлат педагогика институти

**Мустафаева Нодири Абдуллаевна**  
тарих фанлари доктори  
Ўзбекистон Фанлар академияси

**Ерметов Аваз Абдуллаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Хайдаров Ғайратбек Мирзапўлатович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Андижон давлат университети

**Расулов Абдуллажон Нуриддинович**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Наманган давлат университети

**Ковалев Борис Николаевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Санкт-Петербург Тарих институти

**Кобзева Ольга Петровна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Ауанасова Алима Мусировна**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон давлат тарихи институти

**Бегалинова Калимаш Капсамаровна**  
фалсафа фанлари доктори, профессор,  
Қозогистон Миллий университети

**Хайдаров Муродилла Махмуталиевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Тожибоев Музаффар Турдибоевич**  
тарих фанлари доктори, профессор,  
ИИВ Академияси

**Алиева Лале**  
тарих фанлари доктори,  
Озарбайжон давлат университети

**Сайнова Камола Давляталиевна**  
тарих фанлари доктори, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исмаилова Алмаз**  
тарих фанлари доктори,  
Догистон мустақил университети

**Иноятова Диларам Маниглиевна**  
Тарих фанлари доктори (DSc), профессор  
Ўзбекистон Миллий университети

**Таниева Гулдона Мамановна**  
тарих фанлари доктори, в.б.профессор,  
Низомий номидаги Ўзбекистон Миллий  
педагогика университети

**Дорошенко Татьяна Ивановна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Бабаджанова Нодира Абдулаевна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Ширванова Тарана Амирага кызы**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Азербайджон давлат  
иқтисодиёт университети

**Мирзалиев Улуғбек Бегмурзаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Гулистон  
давлат педагогика институти

**Нуруллаева Шоира Кушназаровна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Урганч давлат университети

**Толибоева Нодира Одилжоновна**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон  
жаҳон тиллари университети  
**Масъул котиб**

**Теймураз Ахалмосулишвили**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Телави давлат университети

**Джоробекова Айнур Эшимбековна**  
тарих фанлари номзоди, профессор,  
Қозогистон дипломатия академияси

**Рахмонқулова Зумрад Бойхуразовна**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети

**Исаков Бахадир Нигматуллаевич**  
тарих фанлари номзоди,  
Ўзбекистон давлат жаҳон  
тиллари университети

**Холмуродов Дилшод Рашидович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), Жиззах давлат  
педагогика университети

**Одилов Аброр Анварович**  
тарих фанлари номзоди, доцент,  
Ўзбекистон Миллий университети  
**Масъул котиб**

**Тўхтабасев Аъзамжон Шарипхўжаевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Халмуратов Бахтиёр Режавалиевич**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доцент,  
Наманган давлат университети

**Алимардонов Отабек Қудратович**  
тарих фанлари бўйича фалсафа  
доктори (PhD), доценти  
Ўзбекистон Миллий университети


<b>1. Юлдуз Эргашева</b> ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ВЫСШИХ УЧЕБНЫХ ЗАВЕДЕНИЙ НА ТЕРРИТОРИИ УЗБЕКИСТАНА В ГОДЫ II МИРОВОЙ ВОЙНЫ.....	5
<b>2. Nilufar Djurayeva</b> O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTINING YANGI BOSQICHDA XOTIN-QIZLARGA MUNOSABAT MASALASIDAGI TUB ISLOHOTLARNING USTUVOR YO‘NALISHLARI..	13
<b>3. Камола Саипова</b> НАЦИОНАЛЬНО-ГОСУДАРСТВЕННОЕ РАЗМЕЖЕВАНИЕ И ЕГО ВОЗДЕЙСТВИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО СОСТАВА УЗБЕКСКОЙ ССР.....	26
<b>4. Отабек Алимардонов</b> ХАЛҚ ДИПЛОМАТИЯСИНИНГ ТЎРТ КВАДРАНТИ (ЧОРАК) ПАРАДИГМАСИ: НАЗАРИЙ ТИПОЛОГИЯ ВА ЎЗБЕКИСТОН АМАЛИЁТИ ТАҲЛИЛИ.....	34
<b>5. Zilola Abdualimova</b> SOVET PLAKATLARI TARG‘IBOT VOSITASI SIFATIDA (MIRZACHO‘LNI O‘ZLASHTIRISH MISOLIDA).....	45
<b>6. Шерзод Бахранов</b> ЎЗБЕКИСТОН ССРДА ПАХТАЧИЛИК ИLMИЙ – ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ФАОЛИЯТИ ТАРИХИДАН.....	52
<b>7. Abduvali Berdiyev</b> SHARQIY TURKISTON BILAN SAVDO ALOQALARINING RIVOJLANISHIDA QO‘QON KARVON YO‘LLARINING O‘RNI VA ULARNING MINTAQAVIY IQTISODIYOTGA TA‘SIRI (18–19-ASRLAR).....	58
<b>8. Икрамжон Исмаилов</b> ФАРҒОНА ВОДИЙСИ ВИЛОЯТЛАРИДА ОЛИЙ ТАЪЛИМ СОҲАСИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШДАГИ МУАММО ҲАМДА ЎЗГАРИШЛАР (1991-2020 йй).....	69
<b>9. Земфира Курбанова</b> ЦИКЛЫ ПОМИНОВЕНИЯ В СЕМЕЙНЫХ ОБРЯДАХ КАРАКАЛПАКОВ И ИХ ЦЕНТРАЛЬНОАЗИАТСКИЕ ПАРАЛЛЕЛИ.....	80
<b>10. Tamara Ro‘ziyeva</b> MIRZO SIROJIDDIN HAKIMNING “TUHAFI AHLI BUXORO” ASARIDA TURKISTON JAMIYATI HAQIDA.....	87
<b>11. Sarvinoz Toshmurodova</b> MILLIY SPORT TIZIMI VA OLIMPIYA HARAKATI: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI.....	92
<b>12. Elyor Hojamberdiyev</b> TURON ARXELOGIYASINI O‘RGANISHDA YONDASHUV VA TADQIQOT USULLARI (ERON OLIMLARI MISOLIDA).....	99



**Elyor Shakirovich Xojamberdiyev,**  
O'zbekiston Fanlar akademiyasi  
Tarix instituti kichik ilmiy xodimi  
Pochta manzili: elyorbek0207@mail.ru

## **TURON ARXELOGIYASINI O'RGANISHDA YONDASHUV VA TADQIQOT USULLARI (ERON OLIMLARI MISOLIDA)**

**For citation:** Elyor Sh.Khojamberdiyev. APPROACH AND RESEARCH METHODS IN THE STUDY OF TURANIAN ARCHEOLOGY (IN THE EXAMPLE OF IRANIAN SCIENTISTS). Look to the past. 2025, vol. 8, issue 7, pp.99-102

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.16755301>

### **ANNOTATSIYA**

Mazkur maqolada 20-21-yuzyillik boshlari davomida Eron arxeolog va tarixchi olimlari tomonidan Turon hududidagi arxeologiya yodgorliklari masalasidagi asosiy yondashuv va tadqiqot usullari tahlil qilindi. Tadqiqotlar jarayonida foydalanilgan yondashuv va usullar mohiyati va o'ziga xos xususiyatlariga urg'u berildi. Masalani yoritishda Eronda mavjud Turon arxeologiyasiga oid fors tilli nashrlar tahlilga tortildi.

**Kalit so'zlar:** Formatsiya, kulturologiya, teologiya, ratsionalizm, interdissiplinar, traseologiya, tavsifiy tahlil, tanqidiy tahlil, xronologik tahlil.

---

**Эльёр Шакирович Ходжамбердиев,**  
младший научный сотрудник Института истории  
Академии наук Узбекистана  
эл.почта: elyorbek0207@mail.ru

## **ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ ИССЛЕДОВАНИЯ В ИЗУЧЕНИИ ТУРАНСКОЙ АРХЕОЛОГИИ (НА ПРИМЕРЕ ИРАНСКИХ УЧЕНЫХ)**

### **АННОТАЦИЯ**

В данной статье анализируются основные подходы и методы исследования, применявшиеся иранскими археологами и историками в XX и начале XXI веков при изучении археологических памятников Туранского региона. Особое внимание уделяется характеру и особенностям подходов и методов, применявшихся в ходе исследования. Для прояснения проблемы были проанализированы персоязычные публикации по туранской археологии в Иране.

**Ключевые слова:** Формация, культурология, теология, рационализм, междисциплинарный, трасология, описательный анализ, критический анализ, хронологический анализ.

**Elyor Sh.Khojamberdiev,**  
Junior Researcher, Institute of History,  
Academy of Sciences of Uzbekistan  
Email address: elyorbek0207@mail.ru

## **APPROACH AND RESEARCH METHODS IN THE STUDY OF TURANIAN ARCHEOLOGY (IN THE EXAMPLE OF IRANIAN SCIENTISTS)**

### **ANNOTATION**

In this article, during the beginning of the 20th-21st centuries, the main approach and research methods used by Iranian archaeologists and historians in the issue of archaeological monuments in the Turan region were analyzed. Emphasis was placed on the nature and characteristics of the approaches and methods used in the course of research. To clarify the issue, Persian-language publications on Turanian archeology in Iran were analyzed.

**Index Terms:** Formation, culturology, theology, rationalism, interdisciplinary, traceology, descriptive analysis, critical analysis, chronological analysis.

Dunyo miqyosida tarixiy tadqiqotlarni amalga oshirish bugungi kunga qadar eskirgan va amaldagi, umumqabul qilingan yondashuvlarga asoslangan. Eskirgan va ayrim mamlakatlardagina (Rossiya Federasiyasi) nisbatan saqlanib kelayotgani bu, formasion yondashuvdir. Umumqabul qilingan va amalda mavjudlari esa asosan tamadduniy (sivilizasion), ijtimoiy (sosiologik), madaniy (kulturologik), diniy (teologik), ongli (rasionalistik), tabiiy-ilmiy (naturalistik), zamonaviy (modernizasion) antropologik yondashuvlardan iborat.

Eron tarixchiligida formasion yondashuv keskin tanqid qilingan. Sovet arxeologlarining xizmatlari e'tirof etilgani holda, ularning talqinlari markscha ta'limot va kommunistik mafkura ta'sirida ekanligi ta'kidlangan. Bu shakldagi munosabat Eron tarixshunosligining Turon masalasidagi barcha bosqichlari uchun umumiy omillardan biri deyish mumkin. Deyarli barcha Eron tadqiqotchilari formasion yondashuvga bir ovozdan tanqidiy ko'z bilan qaraganlar. Buni Parviz Varjovand, Malik Shohmirzodiy, Rahim Viloyatiy Seyid Sajjodiy kabi o'nlab eron olimlari misolida ko'rish mumkin [1].

Eron olimlari sovet davri tadqiqotlarida Qadimgi G'arbdagi quldorlik tuzumi Sharqqa nisbatan andoza sifatida olinib bir xil ko'rinishda talqin etilganligi qoralaganlar. Jumladan, Seyid Sajjodiy o'z asarida sovet olimasi G. A. Pugachenkovaning arxeologiya va san'an tarixi sohasidagi ilmiy natijalarini yuksak darajada e'tirof etgan. Ammo, G. A. Pugachenkova yuksak ilmiy tajriba va salohiyatga ega bo'lganligiga qaramay ongli ravishda markscha formasion yondashuv ortidan ketib qolganligini keskin tanqid qilgan[2]. Eron olimi ushbu xulosasini G. A. Pugachenkovaning quldorlik va feodalizm davrini Turkmaniston yodgorliklari misolida yoritishga qaratilgan asarini [7] tahlil qilish asosida bildirgan.

Mazkur talqinga milliy tarixchi olim, akademik A. Asqarov ham ilmiy asoslanmagan sovetcha yondashuv sifatida baho bergan[8]. Shu jihatdan formasion yondashuvning quldorlik masalasidagi talqiniga nisbatan eronlik olimlarning qarashlarini to'g'ri deb qabul qilish o'rinli. Chunki, qadimgi Sharq, xususan, Turon Qadimgi G'arbgga xos quldorlik bosqichini boshdan kechirmagan.

Umuman, Eron tarixchi va arxeologlarining yondashuvlari ham yuqorida sanab o'tilgan jahon amaliyotidagi umumiy tarixiy tamoyillarga asoslangan. Ammo, mintaqaning o'ziga xos tarixiy-madaniy konteksti va landshaftiga mos ravishda ba'zi xususiyatlar ham ko'zga tashlanadi. Shu sabab, umumqabul qilingan zamonaviy yondashuvlar qatorida xususan, Turon masalasida tarixiy-geografik, etnolingvistik, davriy (xronologik) va muammoviy yondashuvlarga asoslangan tadqiqotlar salmoqlidir.

Tarixiy-geografik yondashuvda Turonni eron kontekstida, forsiy dunyo ustunligi va eron madaniy chegaralari ichida ko'rsatishga urinish kuzatiladi. Ushbu omil Turonning tarixiy va bugungi sarhadlari hamda nomlanishi masalasida yaqqol ko'rinadi.

Jumladan, Eron tadqiqotlarida Turon atamasi jo'g'rofiy tushuncha sifatida deyarli qo'llanilmaydi. Odatda esa, eronlik tarixchilar Turon nomi o'rniga ko'proq forslar va arablar qo'llagan tarixiy atamalardan foydalanishgan. Eron tadqiqotlarida "O'rta Osiyo" atamasi shartli ravishda qo'llanadi. Bu atama sovet hokimiyati tomonidan mustamlaka hudud uchun sun'iy o'ylab topilgan geosiyosiy tuzilma nomi sifatida ko'rilgan. Shu bois, Parviz Varjovand rus arxeologi A. Beleniskiyning "Srednyaya Aziya" nomli o'zasarini "Xuroson va Movarounnahr" shaklida qayta nomlab tarjima qilgan[1].

Eron olimlari macalani o'rganishda an'anaviy, zamonaviy va ma'lum ma'noda o'ziga xos tadqiqot usullaridan foydalanganlar. Tadqiqot usullari turli davrlarning texnik imkoniyatlaridan kelib chiqib rivojlanib borgan.

Shu o'rinda quyidagi asosiy va yordamchi usullarni ko'rsatib o'tish lozim:

Fanlararo (interdissiplinar) yondashuv usuli. Mazkur usul yordamida turli fanlar paleozoologiya, paleobotanika, tuproqshunoslik, geologiya va boshqa bir qator tabiiy hamda aniq fanlar yordamidagi natijalar tahlili asosida xulosalar qilingan. Jumladan, aksar Eron arxeologlari Turondagi yodgorliklarni o'rganishda avvalo ularning yuqoridagi fanlar bilan bog'liq xususiyatlarini tavsiflab o'tish an'anasini qo'llaganlar.

Traseologik tahlil usuli. S. A. Semyonovning ushbu usuli va unga oid ilmiy nashrlar[9, 10] Eron arxeologlari tomonidan ham chuqur e'tirof etilgan. Xususan, tosh davrini o'rganishda tayanch tadqiqot usullardan biri hisoblanadi[3]. Eronda mazkur usul G'arb va hind olimlari bilan hamkorlikdagi arxeologik loyihalar doirasida zamonaviy uskunalar (rentgen radiografiyasi, yorug'lik mikroskopiyasi v.h.) yordamida juda keng va samarali qo'llanib kelinmoqda. Asosan, paleolit, neolit va mezolit davriga oid tosh qurollar va organik ashyolarning xususiyatlarini ochib berishda muhim o'ringa ega. Jumladan, tosh qurollar yoshi, tayyorlash texnologiyasi, qo'llanilishiga ko'ra vazifasi va boshqa xususiyatlariga baho berilgan. Keyingi bosqichda ularning kelib chiqishi, tarqalish doirasi, tashqi madaniy belgilari, qo'shni mintaqalar xususan, Turonning qadimgi tosh sanoati namunalari bilan qiyoslangan. Eron arxeologi Behruz Bozgir va hindistonlik olim Lakshmi Tumung yuqoridagi tahlil ma'lumotlariga ega bo'lmasdan, tosh qurollar mohiyatini tushunish va talqin qilish samarasiz bo'lishini ta'kidlaganlar[3].

Nisbiy xronologik tahlil. Deyarli barcha eron arxeologlari sovet va xorij olimlari tomonidan Turondagi yodgorliklar uchun taklif etgan xronologiyaga asoslanib, Erondagi yodgorliklarning nisbiy va ayrim hollarda mutlaq xronologiyasini taqdim etganlar.

Jumladan, Hasan Bosfo, Muhammad Sodiq Dovariy, Mahmud Tug'roiy kabi arxeologlar Eronning Mashhad tekisligidagi Kashferud vodiysining bronzadan neolitga qadar bo'lgan nisbiy xronologiyasini Turondagi BMAK yodgorliklari xronologiyasi tahliliga asosan belgilash usulini qo'llaganlar[4].

Tavsifiy-tahlil. Mavjud ma'lumotlarni (arxeologik hisobotlar va nashrlar) asosida tavsiflash, so'ng ularni tahlil qilishdan iborat. Bu usul aksar eronlik tadqiqotchilar tomonidan keng qo'llanilgan. Jumladan, Eron va Markaziy osiyoning turli davrlarga oid yodgorliklari haqidagi ilmiy hisobotlar va adabiyotlardagi tegishli ma'lumotlar jamlanib, tahlil qilingan. Bunda asosan bilvosita shaklda ikkilamchi manbalar (arxeologik hisobotlar, maqola va monografiya) keng ko'lamda tavsifiy-qiyosiy tahlilga tortilgan. Xususan, Muhammad Husayin Razoiy va Imron Gorojiyonlar paleolit, neolit, eneolit va bronza davri Eron yodgorliklaridagi dafn qilish usuli bilan Markaziy Osiyodagi zamondosh jamoalarning dafn usullarini qiyoslashda tavsifiy-tahliliy shaklda yondashganlar[5].

Kutubxona usuli. Ushbu usul so'nggi o'n yilliklarda Eron va Markaziy Osiyodagi arxeologiya qazishmalari, hisobotlar va axborotnomalardan olingan ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish va tasniflashdan iborat. Mazkur usul yuqorida keltirilgan tavsifiy-tahliliy usulga o'xshash. Faqat, tavsifiy-tahliliy usul Erondagi qazishmalarda bevosita ishtirok etgan holda olingan natijalarni Markaziy Osiyodagi ikkilamchi manbalar (ilmiy nashrlar va arxeologik hisobotlar) bilan qiyoslash orqali amalga oshirilsa, kutubxona usulida ikki mintaqa uchun ham ikkilamchi manbalardan foydalanilgan. Jumladan, Eron tadqiqotchisi Muhsin Dono o'zi bevosita ishtirok etmagan Erondagi qazishmalar natijasi bilan Markaziy Osiyo olimlarining ilmiy nashrlarini o'zaro tahlil qilgan[6].

Tanqidiy tahlil. Eron arxeologlari sovet va g'arb olimlarining mavjud ilmiy nashrlaridagi qarashlar va yondashuvlarni o'z nuqtai nazarlaricha tanqidiy o'rganishga katta e'tibor qaratganlar. Jumladan, V. Bartold, A. Beleniskiy, V. Masson, V. Sarianidi, D. Litvinskiy kabi o'nlab sovet arxeologlarining xizmatlarini e'tirof etganlari holda, ularning qarashlari marksistik mafkura ta'sirida ekanligini bir ovozdan ta'kidlaganlar[1]. Shuningdek, sovet olimlarining bir qator bahsli masalalardagi qarashlarini shubha ostiga olganlar. Biroq, Xibbert, Xol, Salvatori, Karlovskiy singari yuzlab g'arb olimlarining ishlariga nisbatan bunday yondashuv kuzatilmaydi.

Shunga tayangan holda, Eron tadqiqotlarida G'arb maktabining ta'siri nisbatan ustun deb aytish mumkin.

Umuman olganda, eronlik olimlar Turn arxeologiyasini yoritishda ko'p qirrali tadqiqot usullaridan foydalangan bo'lib, unda arxeologik va tarixiy manbalarni chuqur o'rganish, asosan ilmiy adabiyotlarga tayanish, shuningdek, tarixshunoslik jarayonlarini, ya'ni ilmiy qarashlarning o'zgarib borishi va ularga ta'sir etuvchi omillarni tanqidiy tahlil qilish bilan uyg'unlashgan.

### Iqtiboslar/Сноски/References:

1. پرویز ورجاوند. نگاهی به پیشینه چگونگی و ارزش بررسیهای و کاوشهای باستانشناسی در آسیای میانه. فرهنگ و زندگی. تهران. ۱۳۵۷.
2. منصور سید سجادی. باستانشناسی آسیای مرکزی. تهران. ۱۳۹۴.
3. بهروز بازگیر و لاکشمی. شواهد احتمالی از فعالیتهای شکارگری در مکان های پارینه سنگی هیانه و جدید. پژوهشهای باستان شناسی. شماره ۱۰. ۱۳۹۳. ص. ۳۸.
4. حسن باصفا و دیگران. تبیین گاهنگاری نسبی استقرار ها و ارزیابی فرهنگی حواضه کشفرو. محمد حسین رضایی. سنت های تدفین در آئین زرتشتی گری، تدوام سنت دیرپا تدفین ثانویه دوره فراپارینه سنگی و نوسنگی. مطالعات باستان شناسی. تهران. ص. ۲۴۵-۲۷۰.
6. محسن دانا. فرهنگ عصر مفرغ خراسان بزرگ شکل گیری یک مفهوم: خراسان. مطالعات باستانشناسی. تهران. ۱۳۹۹. ص. ۷۵-۹۸.
7. Г. А. Пугаченкова. Пути развития архитектуры южного Туркменистана поры рабовладения и феодализма. Москва. 1958. С. 498.
8. А. Асқаров. Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. Тошкент. 2023. 18-бет.
9. С. А. Семёнов. Первобытная техника. Москва. 1957. С. 253.;
10. S. A. Semenov. Prehistoric Technology. Translated by M. Thompson. London, Adams and Dart. 1964. P. 251.

# ЎТМИШГА НАЗАР

8 ЖИЛД, 7 СОН

ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ  
ТОМ 8, НОМЕР 7

LOOK TO THE PAST  
VOLUME 8, ISSUE 7

Editorial staff of the journals of [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,  
Amir Temur Street pr.1, House 2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Phone: (+998-94) 404-0000

Контакт редакций журналов. [www.tadqiqot.uz](http://www.tadqiqot.uz)  
ООО Tadqiqot город Ташкент,  
улица Амира Темура пр.1, дом-2.  
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: [info@tadqiqot.uz](mailto:info@tadqiqot.uz)  
Тел: (+998-94) 404-0000